XALQ DEPUTATLARI ANGREN SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 21-may VI-82-55-10-148-K/24 Angren shahar

Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2024-yil 11-yanvardagi “Angren shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-75-3-10-148-K/24-sonli qaroriga tegishli o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi qarorini qonun hujjatlariga muvofiqlashtirish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga “E-qaror” elektron tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 390-sonli qarori bilan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini faqat “E-qaror” elektron tizimi orqali ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish (chiqarish), ro‘yxatga olish va e'lon qilish jarayonlarining doimiy monitoringini olib borish belgilangan.

Mazkur qarorga muvofiq adliya organlari tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini faqat “E-qaror” elektron tizimi orqali ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish (chiqarish), ro‘yxatga olish va e’lon qilish jarayonlarining doimiy monitoringi olib boriladi. Adliya bo‘limi tomonidan o‘tkazilgan monitoring davomida, Angren shahar hokimligi “E-qaror” elektron tizimi orqali qarorlari va farmoyishlarini qabul qilishda bir qator qonunchilik hujjatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida: Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o‘zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir - deb ko‘rsatib o‘tilgan.Xususan, Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2024-yil 11-yanvardagi “Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2024-yil 3-yanvardagi VI-74-2-10-148-K/24-sonli “Angren shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga tegishli o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VI-75-3-10-148-K/24-sonli qarori normativ huquqiy hujjat ekanligiga qaramasdan hududiy adliya organining huquqiy ekspertizasidan o‘tkazilmasdan e’lon qilingan.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 390-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari va farmoyishlarini “E-qaror” elektron tizimi orqali ishlab chiqish, kelishish, qabul qilish (chiqarish), ro‘yxatga olish va e’lon qilish tartibi to‘g‘risida”gi nizomning 13-bandiga ko‘ra, hujjat loyihasi normativ tusga ega bo‘lgan taqdirda, mahalliy davlat hokimiyati organining yuridik xizmati:

loyihani Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portaliga jamoatchilik muhokamasi o‘tkazilishi uchun joylashtiradi;

jamoatchilik muhokamasi yakunlangandan so‘ng loyiha bo‘yicha belgilangan tartibda xulosa tuzadi;

loyihani huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun hududiy adliya organlariga belgilangan tartibda tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda kiritganligi bo‘yicha tanishtirdi.

Angren shahar adliya bo‘limi boshlig‘i R.Husanovнинг 2024-yil 01-apreldagi 1-10/1-7/04-sonli taqdimnomasi o‘rganib chiqilib, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 886-sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Angren shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Angren shahar adliya bo‘limi boshlig‘i R.Husanovning 2024-yil 01-apreldagi 1-10/1-7/04-sonli taqdimnomasi ma’mumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2024 - yil 11 – yanvardagi “Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2024-yil 3-yanvardagi VI-74-2-10-148-K/24-sonli “Angren shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga tegishli o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida”gi VI-75-3-10-148-K/24-son qarori bekor qilinsin.

3. Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2024-yil 3-yanvardagi “Angren shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-2-10-148-K/24-sonli qarorining 8-bandidagi “2024-yil uchun shaharning shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 147 416,0 ming so‘m miqdorida belgilansin” so‘zlari, “2024-yil uchun shaharning shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 158 994,0 ming so‘m miqdorida belgilansin” so‘zlariga o‘zgartirilsin.

4. Xalq deputatlari Angren shahar Kengashining 2024-yil 3-yanvardagi “Angren shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-74-2-10-148-K/24-sonli qarorining 8-ilovasi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsientlar”ga o‘zgartirish 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi E.Ergashev va shahar hokimining birinchi o‘rinbosari Y.Naraliyev zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



RAYIMOV ALISHER
ABDUMALIKOVICH

Xalq deputatlari Angren shahar
Kengashining
2024-yil 21-maydagi
VI-82-55-10-148-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv.m uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	**Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun** (ming so‘mda)	**Koeffitsient** (0,5 dan 2 gacha)	**Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun** (so‘mda)
1	“8-mart” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
2	“Abu Rayhon Beruniy” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
3	“Bobotog‘’ MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
4	“Bog‘i Surx” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
5	“Bo‘ston” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
6	“Geolog” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
7	“G‘ofur G‘ulom” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
8	“Grum” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
9	“Gulbog‘” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
10	“Gulzor” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
11	“Go‘zal” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
12	“Dorilfunun” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
13	“Do‘stlik” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
14	“Yoshlik” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
15	“Jigariston” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
16	“Zarbuloq” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
17	“Istiqbol” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78

18	“Istiqlol” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
19	“Karvon” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
20	“Yangi O‘zbekiston” (Qatog‘on) MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
21	“Kimyogar” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
22	“Qorabog‘” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
23	“Ko‘k terak” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
24	“Lashkerak” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
25	“Maydon” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
26	“Mustaqillik” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
27	“Navbahor” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
28	“Navro‘z” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
29	“Na‘muna” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
30	“Nishbosh” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
31	“Nurchi” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
32	“Obliq” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
33	“Obod” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
34	“Ozodlik” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
35	“Oppartak” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
36	“Samarchug‘” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
37	“Sog‘lom” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
38	“Taraqqiyot” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
39	“Mirzo Ulug‘bek” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
40	“Hakkarman Yangi-Jigariston ” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
41	“Chinniobod” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
42	“Chotqol” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
43	“Yangi Bog‘i Surx” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
44	“Yangi Go‘shsoy” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78

45	“Yangi hayot” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78
46	“Yangiobod” MFY	1,05	6 021,75	1,03	548,78